

CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIGA ASOS BO'LGAN HIKOYA HAQIDA

Xusanova Mohlarxon Odil qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU talabasi
Ilmiy rahbar- H.Ahmedov f.f.n, dotsent
mohlarxonhusanova@gmail.com

Annotation:

In this article, the story "Tulip in the Snow" by Abdulhamid Sulaymon oglu Cholpon, a brilliant representative of Uzbek literature, and the plot of the novel "Night and Day" and the similarities of the protagonists, the use of story motifs in the novel and it is argued that this was the basis for the novel.

Keywords:

Cholpon, "Tulip in the snow", "Night and day", image, plot, motive

Masalaning qo'yilishi. "Cho'lponni anglash so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash uning umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir" [1. Ozod Sharafiddinov. Cho'lponni anglash. "Ijodni anglash baxti", 61-bet]. Buyuk o'zbek ijodkori Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Qor qo'nida lola" hikoyasi va "Kecha va Kunduz" romanlarini o'qigan kishi bu ikki asar o'rtasidagi umumiy jihatlarni yaqqol sezadi. Bu o'xshashliklar, avvalo, asarlar syujeti, personajlari, ularning ruhiyatida namoyon bo'ladi.

Masalaning tadqiqi. Biz Cho'lpon ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlaganimizda ko'plab nazariy yangiliklarga duch kelamiz. Shulardan biri – uning hikoyasi va romanlaridagi o'zaro bog'liqlik va mushtarak jihatlardir. "...Shunday voqealar, shunday hodisalar borki, ular drama uchun kifoya qilmaydi, ulardan roman chiqmaydi, deyish mumkin; biroq, ular nihoyatda chuqur, asrlar davomida unutish mumkin bo'lmagan hayot haqiqatini shunday o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi; hikoya ana shunday voqea va hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi" [2. В.Г. Белинский. Собр. соч. в трех томах, т., М., ГИХЛ, 1948, 112-113- бетлар]

Hikoyada ijtimoiy va ma'naviy hayotning turli- tuman masalalari ko'tarib chiqilishi mumkin, ammo ular, huddi roman yoki povestdagidek, keng ko'lamda tasvir etilmaydi.

Cho'lpon hikoyalari mavzu va ma'no jihatdan ancha keng. Lekin ularda asosiy o'rin o'zbek ayolining ijtimoiy ahvoli, erki, qadr- qimmatini uchun kurash mavzusi yetakchilik qiladi.

Ikki asarning bosh qahramonlari Zebi va Sharofatxonning ta'riflariga e'tibor qarataylik:

- "Sharofatxon Samandar akaning bitta-yu bitta qizi edi. Bu qiz shu tegranning ko'rklikda, chevarlikda, sho'xlik va o'ynoqilikda bitta-yu bittasi edi. Mahalla-ko'yning o'spirunlaridan ikkita- uchtasi bir yerga yig'ilsalar, topg'on- tutg'onlari shul Sharofatxon masalasi bo'lur. "Bu qiz qaysi xudo yarlaqog'onniki bo'lur ekan? Kimning uyini obod qilar ekan?"- deb bosh og'ritar edilar..." [3. Cho'lpon. "Qor qo'ynida lola" Ziyouz.uz]

Zebi ham Razzoq so'fining bitta-yu bitta qizi. U ham ko'rklikda, chevarlikda tengi yo'q, ayniqsa do'ppi tikishda. Zebinisaga bir o'rinda shunday ta'rif berilgandi:

- “...Zebi saltanatdan ko`rgan ixloslarini uning onasidan va katta onasidan ko`rmaganmi? Ayniqsa, shu safar? Bu safar Saltanat uning tegrasida gir- gir aylangan bo`lsa, u ikki kekxa xotin o`z yoshlariga yarasha piri-pirashgan emasmi? Zebiday bir qizning kelin bo`lib kelishini kim istamaydi? Qaysi hovli Zebini o`z quchog`iga olishdan tortinadi? Uchta xotin ustiga mingboshi ham talab bo`libdi-ku! ...” [4. Cho`lpon. “Kecha va Kunduz”, 44-bet]

Cho`lpon hikoyasi uchun bag`oyat oddiy, hayotda deyarli har kun duch kelinadigan syujet sxemasini tanlagan ko`rinadi: “qizga sovchi keldi-ota rozi- to`y”. [5. Dilmurod Quronov. Cho`lpon nasri poetikasi. T., 156-bet]

Qahramonlarning otalarining harakteri ham o`xshash. Sharofatxonning otasi Samandar akani – “Erta bilan saharlab Eshonnikiga ketar, zikr bo`lsa- bo`lmasa eshonning ishini qilib, kechqurun shomlatib uyiga kelar edi. Uyiga kelgandan so`ng ham bir qoshiq suyuq- quyug`i bo`lsa totinib, malla joynamozining ustiga chiqib o`tirib, qahrabo tasbehni necha davr aylantirib “vazifa”larni o`qur, so`ngra to yarim kecha- sahar gacha ho`ngur- ho`ngur yig`lar edi”-, deyilgandi.

Razzoq so`fini haqida esa:

- “...Yoz faslida esa ko`proq kunduzi uxlaydi, kechalar tong otguncha yolg`iz baland ovoz bilan “Oblohu!” aytib, o`z oilasi va qo`ni- qo`shnini uxlatmaydi”- deb tasvirlangan. (“Kecha va kunduz”, 26-bet)

Lekin so`fi Samandarga nisbatan insofliroq ekanligi, o`z xohishicha emas, majburlikdan, ya`ni ilmsizlikdan qizini berishga majbur bo`ladi.

“ - Men ko`p olishdim. “Benamozga qiz bermayman!” dedim. “Sen bizning ming yillik ibodatimiz-u ularning bir kunlik xizmati bab-barobar! Mingboshi qancha mo`min musulmonlarning hojatini chiqaradi, qancha alamzadaning dodiga yetadi! Qancha o`g`ri, kisavur, qaroqchining dodini beradi. Ibodat ibodat, mo`min musulmonga xizmat- ibodat! Balki, keyingisi- a`lo” dedilar. Nima deyin? Nima deb bo`ladi? Men omi bo`lsam, savodim bo`lmasa, oq qorani ta`nimasam, u kishi mulla bo`lsa...”

Ammo, baribir personajlarning taqdiri deyarli bir xil yakun topdi.

Qiziga yoshi ulug` odamdan sovchi kelganda shikoyat qilish motivlari ikki asarda ham bor. “Qor qo`ynida lola”da Qumribush:

- Endi eshonning o`zlari ham “qarib quyilmag`on, achib suyilmag`on”lar, deya ikkita xotinlari ustiga tag`in bu...

Qurvonbibi esa:

-Mingboshi bo`lsa, xotini bordir? Xudo urib kundosh ustigami?!

Yana asarlarda Saltanat va Fazilat ismlarini ko`rishimiz mumkin.

Har bir badiiy asar hayotning katta yo kichik umumlashtirilgan manzarasidir. Hayotda g`oyalar esa alohida yashamaydilar, ular turmushning murakkab protsesida o`z ifodasini topadi.[6. I.Sulton- Adabiyot nazariyasi. T., “O`qituvchi”,1986, 67-bet].

“O`zbek romanchiligi endigina shakllanayotgan davrda maydonga kelgan “Kecha va kunduz” hayotiyligi, milliy ranglarga boyligi, tabiiyligi va samimiyligi bilan, qahramonlar harakterining butunligi va to`kisligi bilan realism tantanasiga katta xissa qo`shdi.”[7. N.Karimov- XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. T., “O`qituvchi”, 1999, 195 bet]

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, “Kecha va Kunduz” kabi buyuk asar yozilishiga 20-yillarda yozilgan “Qor qo`ynida lola” asari asos (xamirturush) bo`lib xizmat qilgan. Yozuvchining mahorati tufayli ikki asar ham hanuzgacha barchaga sevimli bo`lib kelmoqda. Aytish mumkinki, “Qor qo`ynida lola” hikoyasidagi tasvir va g`oya bir tomondan olib qaraganda o`zbek diyorida hayotiy reallik bo`lsa, ikkinchi tomondan mavjud milliy biqlikdan tezroq qutulish istagidir. Hikoya va keyinchalik yaratilgan romandagi bosh g`oya – har ikki asarning markaziy g`oyasi ekanligi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафиддинов О. “Ижодни англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. 640 б.
2. В.Г. Белинский. Собр. соч. в трех томах, т., М., ГИХЛ, 1948, 340 с.
3. www.ziyouz.uz. Cho‘lpon. “Qor qo‘ynida lola”.
4. Чўлпон. “Кеча ва кундуз” романи. Т.: “ШАРҚ” , 2000. – 288 бет.
5. Дилмурод Куронов. “Чўлпон насри поэтикаси”. Т.: “ШАРҚ” НМАК 2004. – 248 бет.
6. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. “Ўқитувчи” нашриёти, Т.: 1986. 408 б.
7. Наим Каримов, Бахтиёр Назаров, Салоҳиддин Мамажонов ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. I китоб. Т.: “O‘zbekiston” нашриёти. 2008. – 534 бет.